

Maxsus “TA‘LIM – Internet-paketlari” maxsus paketlari guruhi (Faqat “TA‘LIM”, «TA‘LIM for corporate» TRga ulangan abonentlar uchun amal qiladi)

- USSD orqali Internet paketlariga ulanish “TA‘LIM” TR abonentlari uchun, shuningdek “Mobil byudjet” xizmatiga ulangan «TA‘LIM for corporate» TR abonentlari uchun mavjud. Menyuga kirish uchun quyidagilarni terish lozim: 2251# (ma’lumot o‘zbek tilida), 2252# (ma’lumot rus tilida).
- Shuningdek, “TA‘LIM for corporate” TR abonentlari uchun Internet paketlarga ulanish UZTELECOM sotuv va xizmat ko‘rsatish ofislarida yozma ravishda murojaat qilish orqali amalga oshiriladi.
- Faollashtirilgan Internet- paketda (yoki tarif rejadagi) qolgan Internet trafik haqida ma’lumot olish uchun 1002# yoki 9999 qisqa raqamiga 1002 raqamlarini terish zarur.
- Ushbu paketlarga dilerlik xizmat ko‘rsatish nuqtalari orqali, shu jumladan, USSD buyrug‘i orqali dilerlar tomonidan ulanishga yo‘l qo‘yilmaydi.
- Internet- paketlar faqatgina “TA‘LIM”, “TA‘LIM for corporate” TRga ulangan abonentlari uchun taqdim etiladi.
- Internet paketlari faollashtirilgan muddatdan 30 kun davomida amal qiladi.
- Joriy paketni yangilash ushbu guruhdan boshqa Internet paketni sotib olish orqali amalga oshiriladi. Jamlangan megabaytlarning amal qilish muddati so‘nggi paket sotib olingan kundan boshlab 30 kun amal qiladi.
- Internet paket muddati tugaganidan so‘ng, ushbu guruhdan navbatdagi Internet paket faollashtirilmagan bo‘lsa, megabaytlar qoldig‘i saqlanmaydi.
- Agarda abonentda Internet paket mavjud bo‘lsa, sessiya uchun Internet paketdan MB yetarli bo‘lmasa (10 MBdan kam), unda asosiy balansdan (agar hisobda mablag‘lar mavjud bo‘lsa) hisob-kitoblar amalga oshiriladi.
- Internet trafik sarf etilishining ketma-ketligi:
 1. Bonusli Internet- paketlar (agarda mavjud bo‘lsa)
 2. “Kunlik Internet paketlar” paketlar guruhi (bir kunlik to‘plamlar)
 3. TAS-IX uchun Internet paketlar guruhi;
 4. Tarif rejasida doirasidagi erkin resurslar (limitlar);
 5. “Internet non-stop” Internet paketlari guruhi;
 6. “TA‘LIM Internet paketlar” paketlar guruhi;
 7. Boshqa sotib olingan Internet paketlar guruhi.
- Paketlarning boshqa turlarini kiritishda sarf shartlari va dolzarbligi qo‘shimcha bayon etiladi. Tarif rejasiga kiritilgan trafik oxirida yoki paketning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng, barcha tarif rejalariga narxlar tarif rejasining shartlariga qarab belgilanadi.